



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO‘JALIK INSTITUTI**



**Agronomiya fakulteti. Agrokimyo, tuproqshunoslik va
o‘simliklarni himoya qilish kafedrası «5410300 – O‘simliklar
himoyasi va karantini» ta’lim yo‘nalishi bakalavriat bitiruvchisi**

**Mavzu: “Qalqondorlarning tur tarkibi, biologiyasi va
ularga qarshi kurash choralari”**

Kazakov Sobirjon Asredinovichning

**BITIRUV
MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: dotsent

A.O’ Maxmatmurodov

Malakaviy bitiruv ishi Agrokimyo,
tuproqshunoslik va o‘simliklarni
himoya qilish kafedrası yig‘ilishida
muhoqama qilindi va DAK himoya-
siga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri, professor

F.H. Xoshimov

2015 yil

Bayonnoma № 20

Agronomiya fakulteti dekani,
dotsent
“2” VI 2015 yil

Samarqand – 2015

Факултет Агрономия
Таблим йўналиши 5410300 – Ўсимликларнинг вақит ва ҳароратки.
(код, тўлиқ ном)
Кафедра: Агрокимё, тупроқшунослик ва ўсимликларни химия қилиш



(имза, мухр)
2014 йил

1. Ижрочи Ҳажаков Собиржон Асрадинович
(Ф.И.ПЕ)
2. Мавзу: Ҳаҷрондорларнинг тур таркиби,
васолати ва уларга зарфи қарам
ҳовалори.

Маъруза институт Илмий кенгашининг "14" август 2014 йилдаги 1__ сонли қарори билан тасдиқланган

3. Мавзунинг долзарблиги, назарий ва амалий (иктисодий, ижтимоий, экологик, илмий-техник, меҳнат муҳофазаси, ҳаёт хавфсизлиги ва ҳ.к.) аҳамияти

[illegible]

4. Малакавий битирул ишيني бажариш учун таъсия қилинадиган илмий, ўқув-услубий ва бошқа ахборот манбалари (дарслик, ўқув қўлланмалари, маърузалар кўрс, монография, илмий мақолалар ва ҳ.к.)

1. В. Т. Хитров. "Самые интересные загадки -
2. наша страна и наш язык". Библио-книж.
3. Каждый секретологический материал
4. и язык. Т-2014 г.
5. Яковлев В. В. "Битва с войсками" Библио-книж.
6. загадки культуры в устной форме "Библио-книж."
7. Курский "Горный" Т-1982 г. Б-225-613
8. М. Анхель П. Библио-книж. особенности "Горной"
9. Филатовой и "Горной" и "Горной" с книж.

10.

5. Малакавий битирув иши бўйича маълумотлар тўплаш, ҳамда тадқиқот ишлари олиб бориш манбалари ва жойлари (ўқув зали ва хоналари, Ахборот Ресурс Маркази, лабораториялар, таъкилот, корхона, илмий ёки таълим муассасаси)

Малакавий битирув иши бўйича маълумотлар тўплаш, ҳамда тадқиқот ишлари олиб бориш манбалари ва жойлари (ўқув зали ва хоналари, Ахборот Ресурс Маркази, лабораториялар, таъкилот, корхона, илмий ёки таълим муассасаси)

6. Малакавий битирув ишини тайёрлаш бўйича амалга ошириладиган ишлар режаси

№	Ишнинг мазмуни	Тахминий ҳажми (бет)	Ижро муддати	Изоҳ
1	Масаланинг қўйилиши. Мавзунинг долзарблиги, етилиши ёки ўрганилиши лозим бўлган масаланинг моҳияти ва мақсадини ёритиб бериш (кириш қисми)	5	декабр	
2	Мавзу бўйича маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш (ёрдамчи мулоҳаза ва фактлар)	15	январ	
3	Олиб борилган тажрибалар, тадқиқот ишлари, натижаларни таҳлил қилиш ва тартибга солиш (параграф, боб, бўлим ёки қисмлар бўйича)	10	феврал	
4	Олинган тажрибаларнинг назарий ва амалий аҳамияти бўйича хулоса бериш ҳамда тадбиқ соҳалари ва усулларига оид тақлифлар тайёрлаш	10	март	
5	Битирув ишини расмийлаштириш ва унинг ҳимояси учун зарурий қўргазмалар воситаларни (жадваллар, расмлар, графиклар, диаграмма, макет, стенд ва ҳ.к.) тайёрлаш	10	апрел	
6	Дастлабки ҳимояга тайёргарлик кўриш ва ҳимояга чиқиш матнини тайёрлаш	5	май	
7	Битирув иши бўйича қўшимча маслаҳатчилар	5	май	

Илмий раҳбар:

Кафедра мудири:

(Signature)

Samarqand qishloq xo'jalik instituti
«Agrokimyo, tuproqshunoslik va o'simliklarni himoya qilish»
kafedrasining 40 - sonli majlis

B A Y O N I D A N K O' C H I R M A
«42»_may_ 2015 yil Samarqand shabari

Qatnashdilar: F.Hoshimov - kafedra mudiri, P.Uzoqov - kafedra professori, M.Hayitov - kafedra dosenti, B.Abdullayev - kafedra dosenti, T.Ortiqov - kafedra dosenti, E.Umurov - q.s.f.doktori, S.Ahmedov - kafedra katta o'qituvchisi, O.Nazarov - kafedra katta o'qituvchisi, M.Mashrabov - kafedra assistenti, A.Sadinov - kafedra assistenti, Sh.Hazratqulov - kafedra assistenti, A.Xudoyqulov - kafedra assistenti, O.Po'latov - kafedra assistenti, B.Shomiyozov - kafedra assistenti, X.Xursanov - kafedra assistenti, Sh.Xolmuhammadov - kafedra assistenti, L.Sonanyan - kafedra laboranti, M.G'ulomova - kafedra laboranti, hamda kunduzgi bo'linning kafedrada malakaviy bitiruv ishi bajaragan 53 nafar talabasi.

Kun tartibi:

Kunduzgi bo'lin bitiruvchisi Kazakov Sobirjon Asredinovichning
«Qalqondorlarning tur tarkibi, biologiyasi va ularga qarshi kurash choralarini»
mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi muhokamasi

So'zga chiqdi:

Kafedra mudiri, Professor F. Hoshimov O'zbekiston Respublikasi OO'MTV ning buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy o'quv yurtlari bakalavrlarining malakaviy bitiruv ishi» to'g'risidagi nizomiga asosan har bir malakaviy bitiruv ishi kafedrada muhokama qilingandan keyin DAK himoyasiga tavsiya etilishi kerakligini aytib o'tdi. Kafedramizda kunduzgi bo'lin bitiruvchisi Kazakov Sobirjon Asredinovichning «Qalqondorlarning tur tarkibi, biologiyasi va ularga qarshi kurash choralarini» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi muhokamasini eshitamiz.

Shundan so'ng Kazakov Sobirjon Asredinovich o'z malakaviy bitiruv ishi mavzusini dolzarbligini, ahamiyatini, ilmiy yangiligini, olingan natijalarni va qilingan xulosalarni ma'ruza qildi.


Ma'ruzachiga mavzu yuzasidan 3 ta savol berildi, u berilgan savollarga javob berdi.

Muhokamada F.Hoshimov, P. Uzoqov, T. Ortiqov, S. Ahmedov va B. Abdullayevlar ishtirok etdilar.

QAROR QILINDI:

Bitiruvchi Kazakov Sobirjon Asredinovichning «Qalqondorlarning tur tarkibi, biologiyasi va ularga qarshi kurash choralarini» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi haqida ko'rsatkichlari bo'yicha DAK talablariga javob berishi inobatga olinib, u DAK da himoya qilish uchun tavsiya etilsin.

Majlis raisi, professor



F.X. Hoshimov

Kotiba



M.G'ulomova



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO'JALIGI VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

*«Agrokimyo, tuproqshunoslik va
o'simliklarni himoya qilish» kafedrası
5410300 – O'simliklar himoyasi va
karantini ta'lim yo'nalishi bakalavriat
bitiruvchisi*

**KAZAKOV SOBIRJON ASREDINOVICHNING
*BITIRUV MALAKAVIY ISHI***

Mavzu: Qalqondorlarning tur tarkibi, biologiyasi va
ularga qarshi kurash choralari

Ilmiy rahbar, dotsent _____ **A.O' Maxmatmurodov**

*Malakaviy bitiruv ishi Agrokimyo,
tuproqshunoslik va o'simliklarni
himoya qilish kafedrası yig'ilishi-
da muhokama qilindi va DAK himoya-
siga tavsiya etildi. Kafedra mudiri,
professor* _____ **F.X.Hoshimov**
«__» _____ **2015 yil**
Bayonnoma № _____

*Agronomiya fakulteti
dekani, dotsent*

_____ **D.S.Normurodov**

«__» _____ **2015 yil**

SAMARQAND-2015

BAYoNIDAN KO'ChIRMA

Samarqand shahri

MUNDARIJA

betlar

	KIRISH	5
I-Bob.	Qalqondorlar turlari va ularga qarshi kurash usullari Adabiyotlar sharhi.....	8
II-Bob.	Qalqondorlarni asosiy turlarini biologik xususiyatlari.....	15
2.1.	Turon soxta qalqondori.....	15
2.2.	Binafsha rangli qalqondor.....	19
2.3.	O'rta Osiyo vergulsimon qalqondori.....	24
III-Bob.	Qalqondorlarga qarshi kimyoviy kurash choralari.....	29
IV-Bob.	Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologik muammolar.....	33
4.1.	Kimyoviy moddalardan foydalanishda xavfsizlik choralari.....	34
4.2.	Shaxsiy himoya vositalari turlari va ulardan foydalanish tartibi.....	35
	Xulosalar.....	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	
	ILOVALAR.....	

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi jaxon iqtisodiy inqirozidan chiqish davrida barcha yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini jahon bozor talablariga javob beradigan darajada sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishini taqazo etadi. Endilikda qishloq xo'jaligining barcha sohalarida islohotlar o'tkazilib mamalakatimizning oziq ovqat xafsizligini ta'minlash yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan aholi jon boshiga yetarli mikdorda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va iste'mol qilish bo'yicha eng rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish respublikada olib borilayotgan agrar siyosatning negizi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov uz ma'ruzalarida, - kishlok xujaligi - Respublika iktisodiyotining eng kulamli, xal kiluvchi bug'ini bulib, Respublikaning takdiri ko'p jixatdan shu soxaning kandy rivojlanishiga bog'lik, - deb ko'rsatib, qishlok xo'jaligining takdiri, demakki, eng muxim ijtimoiy, iktisodiy muammolarimizning xal etilishi, pirovard natijada, mamlakatimiz ozik - ovkat ta'minoti xavfsizligi bu boradagi ishlarning kulami va samaradorligi bilan bog'liqligini ta'kidlab utgan.

Bizga ma'lumki, qishloq xo'jaligi zkinlariga zararli organizmlar, ya'ni zararkunanda, kasallik va begona o'tlar katta zarar yetkazib, ularni sifatini va miqdorini keskin pasaytirmoqda. BMTning dunyo miqyosidagi ma'lumotlariga ko'ra, har yili qishloq xo'jaligada yetishtirilgan mahsulotlarning 30% dan yuqorisi, rivojlanmagan davlatlarda 50% yetishtirilgan mahsulot zararli organizmlar tomonidan nobud bo'lmaoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, o'simliklarni himoya qilish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda o'simliklarni uyg'unlashgan himoya qilish keng ko'lamda olib borilmoqda. Bu tizimning asosi ma'lum fitosanitar sharoitda ekinlarni zararli organizmlardan to'la himoya

qilish va shu agroekosistemani mo'ta'dilligini ta'minlashdan iboratdir. Bu degani zararli organizmlarni tabiatda tubdan yo'q qilib yuborish emas, balki agrobiosenozdagi zarasiz muvozanatini saqlashdan iboratdir. O'simliklarni uyg'unlashgan himoya qilishning asosi biologik kurashda tayangan holda olib boriladi. Biologik usulning mohiyati qishloq xo'jaligi ekinlarining zararkunandalarga qarshi tirik organizmlarni yoki ularning hayotiy mahsulotlarini qo'llashdan iborat.

Respublikamizda biologik usul qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda 60 yillardan boshlab qo'llanilib kelinmoqda.

Hozirgi vaqtda respublikamizda mavjud 800 ga yaqin biolaboratoriyalarda 20 dan ortiq entomofaglar va ularning hujayra organizmlari ko'paytirilmoqda: masalan, parazitlar -brakon, trixogramma, enkarziya; yirtqich entomofaglardan: oltinko'z, beshiktervatar, kandalalar va shu bilan birga biologik usulda qo'llaniladigan mikropreparatlar ham shular jumlasiga kiradi. O'simliklarni himoya qilishda biologik kurash usuli yildan yilga oshib bormoqda. Hozirda biologik usuldan 60% dar ortiq qishloq xo'jaligi ekinlarida foydalanilmoqda.

O'zbekistonda mevali bog'larni ko'paytirish uchun hamma imkoniyatlar mavjud, xususan tabiiy iqlim sharoitlari ham mevali daraxtlarni ekib o'stirishga qulaydir. Ammo ko'pchilik mevali daraxtlar bir yerda ko'p yil o'sishi tufayli zararkunandalar ko'payib, ildizdan tortib mevalargacha katta zarar yetkazadi.

Mevali daraxtlarga zarar keltiradilar so'ruvchi zararkunandalar orasida olma biti va qalqondorlar katta zarar yetkazadi. Bular o'ziga xos hasharotlar guruhiga mansub bo'lib, ular o'simliklarning sharbati bilan oziqlanadilar, ko'pincha qalqondorlar o'simlikning to'qimasida patologik o'zgarishlarga olib keladilar, natijada barglarning va mevalarning to'kilishiga sabab bo'ladi, ayrim novda va shoxlarni quritadi, hosilning miqdori kamayib, sifati buziladi.

Ba'zi hollarda butun o'simlikning qurishiga olib kelishi ham mumkin. Bundan tashqarii qalqondorlar so'rishi sabali o'simlik qobig'i va mevalarida qizil yoki to'q sariq rangli dog'lar paydo bo'ladi, 6u esa meva mahsulotining

mazasi va sifatini pasaytiradi, ular normal kattalikkacha rivojlanmaydi. Odatda Kaliforniya va Binafsharang qalqondorlar shunday zarar keltiradi.

Ko'pchilik koksidlari juda ham xura hasharotlar bo'ladilar, ayniqsa, yilning issiq davrida va havoning nisbiy namligi past bo'lganda hujayra shirasining organizmi hazm qilishidan ko'ra ko'proq so'rib oladi. Bu esa tarkibida shakar ko'p bo'lgan najosatning ajralishiga olib keladi. Yopishqoq va shirali tomchilar «asal shudring» deb nom olgan, ular barglar, mevalar va novdalarni qoplaydilar. Bu shirali chiqindilarda qora zamburug'lar paydo bo'ladi va barglarda fotosintezning bir me'yorda kechishiga halaqit beradi, natijada mevali daraxtlarning dashqi ko'rinishi va fiziologiyasida salbiy jihatdan o'zgarishlar ro'y beradi.

Mevali bog'lardagi koksidlari ichida Turon soxta, Binafsharang, Kaliforniya va O'rta Osiyo vergulsimon qalqondorlari ko'proq ahamiyatga ega. Ular O'zbekistonning hamma yerlarida uchraydi va mevachilikka katta zarar yetkazadi.

I-Bob. QALQONDORLAR TURLARI VA ULARGA QARSHI

KURASH USULLARI

Adabiyotlar sharhi

Qalqondorlar (Sossinea) kenja turkumiga, saratonlar (Cicadinea), barg burgachalari (Psyllinea), oq qanotlar (Aleurodinea) va bitlar (Aphidinea) bilan birga xartumli hasharotlar (Homoptera) turkumi tarkibiga kiradi.

Koksidlarning dunyo faunasida 4000 dan ortiq, MDH mamlakatlarida 500 dan ortiq, O'zbekistonda esa 120 dan ortiq turlari qayd qilingan (Arxangelskaya, 1937; Borxsenius, 1963; Bozorov, Shmelev, 1971; Nasekomne Uzbekistana, 1993).

Bular juda mayda hasharotlar, oz yoki butunlay harakatsiz, tashqi ko'rinishi va rangi lishayniklar va so'g'alta o'xshaydi. Qalqondorlarning zararligini dunyoga ma'lum bo'lgan Kaliforniya turining faoliyatidan ko'rish mumkin (Muqaddas Iosif qurti – San Jose scale) zararli qalqoncha (Arxangelskaya, 1937; Konstantinova, Kozarjevskaya, 1990).

Xitoyning shimoli - sharq o'lkalari, Koreya, Rossiya Federasiyasining Xabarovsk va Primorye o'lkalari qalqondorlarning vatani hisoblanadi. XIX asrning 70 yillari boshlarida ular shu yerdan AQSh ga o'tadi va 1873 yili Kaliforniya shtatining sanoat bog'lariga qirg'in keltiradi va shu sababli «Kaliforniya qalqondori» deb nom olgan. Shu makondan u g'arbiy Yevropaning ko'pgina mamlakatlariga olib kelindi, hozir ham bu yerda ular katta zarar yetkazayaptilar.

MDH mamlakatlarida Kaliforniya qalqondori Kavkazning Qora dengiz sohillarida 1931 yili topildi. U yerdan Markaziy Osiyoga 1947 yili olib kelingan va Stalinobod o'chog'i vujudga kelgan (Tojikiston), O'zbekistonda esa u 1964 yili topildi. Hozirgi vaqtda Farg'ona vodiysida, Sirdaryo, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan (Sheffer, 1968; Martirosov, Sheffer, 1969; Shaniyazov, 1970).

Qalqondorlar ko'p o'simliklar turiga zarar yetkazadi, ya'ni 200 dan ortiq daraxt, butalar zararlanib, ularning o'sishi susayadi, hosili va sifatiga pasayadi, zararlayagan mevalarda qizil dog'lar yoki qadoqchalar vujudga keladi, ular to'la rivojlanmaydi, hunuk shakl tusini oladi va yoriqlar vujudga keladi, ayrim novdalar quriydi, tabiiyki hosil haqida gapirmasa ham bo'ladi.

Amalda O'zbekistonning va barcha Markaziy Osiyoning koksidlari faunasini tadqiq qilish 1908 yildan boshlangan, bunda akademik N. Nosonov (1908) birinchi bo'lib sharqiy yastiqsimon (*Pulvinaria orientalis* Nas). Muyunkumdan, amerikalik koksidolog S. Marlet (Marlatt 1908) Kaspiy orti qalqonchasini Ashxaboddagisini ta'rifladi (*Aspidiotus transcaspensis* Marlatt).

1911 yili Toshkentda Turkiston entomologik stansiyasining barpo etilishi koksidlarni tadqiq etishda muhim voqeya bo'ldi (hozirgi O'zbekiston Respublikasi O'simliklarni himoya qilish ilmiy tekshirish instituti).

Shu stansiya hodimlari koksidlarga o'z e'tiborini qaratdilar va bu zararkunandalar (koksidlari) tadqiqot ishlarining obyektiga aylandi (Plotnikov, 1915). Toshkent atrofida bog'larda mevali daraxtlarda uchrovchi shirasimon qalqondorlar' ustida kuzatuvlar olib borildi. Yosh olma va nok daraxtlarida katta qalqondor (*Lecanium bituberculatum* Tang) kuzatildi. Hozir u do'lana soxta qalqondori (*Palaeolecanium bituberculatum* Targ) deb nomlanadi. Keyinroq 1913-1914 yillarda muallif olmaning vergulsimon qalqondori miadorini ko'payganini qayd qilgan (*Lepidosaphes ulmi* L va *Lecanium sp.*). Olim shuni ta'kidlaydiki, u vergulsimon qalqondorga (*Lecanium bituberculatum* Tang) o'xshaydi (Plotnikov, 1915). Shu bilan bir vaqtda Turkiston qishloq xo'jaligi Isfara vodiysida mevali daraxtlarning zararlanganligi to'g'risida ma'ruza qilgan (I. Sevastyanov, 1914 yil hozirgi Xo'jand viloyati). Tut odimchisi bilan bir qatorda do'lana va sharsimon qalqondori va boshqalar keng tarqalgan.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo koksidlari ustida ilmiy tadqiqotlar 1920 yildan boshlab olib borildi. Bunda er-xotin P.P. va A.D.Arxangelskiylar xizmati kattadir (Arxangelskaya, 1937). Mualliflar Markaziy Osiyoning turli

hududlaridan koksidlarni yig'a boshladilar va tadqiq qildilar. Xususan, O'zbekiston, Tojikiston, Qirgiziston va Qozog'istonning janubidan yig'ilgan namunalar o'rganildi va qator maqolalar chop etila boshlandi. 1923 yili koksidlarning 35 turi to'g'risidagi ma'lumotlar Chop etildi (Arxangelskaya, 1923). Koksidlarni tadqiq qilish ishlari yanada jonlanib, 1926 yilga kelib, koksidlarning 40 ta turi qayd qilindi (geografik tarqalishi va ozuqa o'simligi bilan). Mevali daraxtlarga binafsha rangli qalqondorlar ko'proq zarar yetkazishi aniqlandi (*Parlatoria oleae Colvee*), olmaning katta qalqondori, aylana qalqondorlar (*Physokermes unifasciatum Arch*) va boshqalar (Plotnikov 1926).

Turkistonda uchrovchi koksidlarning to'g'risida 1930 yili A.D.Arxangelskaya maqola chop ettirdi. Shu yili Eronga qilgan ekspedisiya tufayli koksidlarning bo'yicha ma'lumotlar ro'yxati nashr etildi. Shu davrda boshqa shunga o'xshash ishlar ham chop etildi, unda Markaziy Osiyodagi koksidlarning ham tilga olinadi (N.V.Kojanchikov va boshqalar).

1936 yili O'zbekistonda va Markaziy Osiyoda 120 ta koksidlarning turi aniqlangan (7ta kenja oiladan). Shulardan 70 turi mevali, manzarali, dala va orenjeriya o'simliklari uchun zararlidir va 50ga yaqin turi yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarda uchraidi. Asosii diqqat 67ta zararli turga qaratildi, ular Markaziy Osiyodagi respublikalardan tashqari o'zga hududlarda geografik tarqalishi ko'rsatilgan. Ozuqa o'simliklarning ro'yxati, koksidlarning iqtisodiy ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan (Arxangelskaya, 1937). Ushbu tadqiqot ishlari Markaziy Osiyodagina emas, balki MDH mamlakatlari uchun ham turtki berdi. Bu yerda shunga o'xshash ishlarning yo'qligi tadqiq qilishni sustlashtirdi. Ushbu kitob hozirgi vaqtda karantin xizmatchilari va o'simliklarni himoya qilish mutaxassislari uchun juda zarur qo'llanma bo'lib qoldi.

O'zbekistonda va barcha Markaziy Osiyoda uchrovchi koksidlarni chuqur tadqiq qilish ishlarini butun dunyoga mashhur bo'lgan koksidolog olim N. S. Borxsenius olib borgan, Ayniqsa, Sobiq Sovet Ittifoqi Fanlar Akademiyasi Zoologiya institutining Tojikistonga evakuasiya qilingan davrda (1942-1945 yillar) tadqiqot ishlari natijalarini muallif (Vrednne jivotnme Sredney Azii,

1949) qo'llanmasi da va boshqa nashrlarda Chop etgan (Borxsenius, 1963). Muallif Markaziy Osiyodagi koksidlarni chuqur tekshirib chiqdi, bu esa ularning tur tarkibini aniqlashga imkon berdi.

Keyingi davrda olib borilgan tadqiqotlar koksidlarning muhim turlarining tarkibini, ularning biologik xususiyatlarini va koksidlarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqarishga qaratildi. Bu masalalar bilan O'zbekistonda ko'p tadqiqotchilar shug'ullanishgan.

Koksidlarning tarqalishini chegaralash va hosilni zararlashdan saqlab qolish maqsadida koksidlarga qarshi kimyoviy va boshqa kurash choralarini ishlab chiqilmoqda. Koksidlarga qarshi samarali kurash usullaridan biri-kimyoviy va biologik kurash usullaridir.

Insektisidlar yordamida olib borilgan kurash choralarini tez fursatda samara beradi, bunda mablag' ham kam sarflanadi. Zararkunandalarga qarshi kurash choralarini tashkil etilgan dastlabki yillar neftli yog'larga e'tibor qaratildi, keyinroq har xil kimyoviy guruhlardan bo'lgan organik sintetik birikmalar ishlatib ko'rilgan.

Shunga o'xshash tavsiyalar binafsha rangli qalqondorlarga qarshi kurash uchun ham ishlab chiqarilgan, tadbirlar majmuasida ko'chatlarni va payvand uchun ishlatiladigan materiallarni zararsizlantirish uchun quyidagi usul tavsiya etiladi:

- 100 l suvga 1 kg tiofos yoki 1.2 kg metiletiltiofos yoki 2 kg trixlormetafos-3, bunga 1 kg preparat 30 qo'shiladi. Yaxshi eritilgan eritmaga ko'chatlar 10-20 minut davomida botiriladi.

Bahorda kurtaklar bo'rtirib chiqishdan oldin va kuzda barglar to'kilishidan so'ng daraxtlar DNOK, N30, nitrofen, nitroemulsiya, karbofos, metafos va boshqa preparatlar bilan purkaladi (Migel Anxel, 1989).

Ammo adabiyotlardagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yuqorida ta'rif etilgan pestisidlar yuqori darajada zaharlidir va atrof muhit uchun zaralidir, bu esa ularni ishlab chiqarishdan olib tashlashga olib keldi. Keyingi yillarda, ya'ni 70-80 yillarda kimyoviy kurash doirasida yangi samarali pestisidlar paydo

bo'ldi. Sintetik piretroidlar yuqori insektisidlik hususiyatiga egadir va atrof-muhitda tezda parchalanib ketadi. Piretroidlarning bu hususiyatlari koksidlarning bilan kurash talablariga javob bera oladi.

Ma'lumki, zararli hasharotlarning rivojlanishida ularning parazitlari va yirtqichlari hamda entomofaglari muhim rol o'ynaydi. Bu esa biologik usuldagi kurash chorasini ishlab chiqarishda asos bo'ladi. Biologik kurash chorasiga yaqqol misol bo'lib, Oddiy Oltinko'z (*Shrysopa Sagpea Steph*) ni qo'llashni olishimiz mumkin.

Bundan tashqari oldinlari qalqondorlarga qarshi kurashda biologik usulni ishlab chiqish bilan bir qatorda qalqondorlar entomofoglari komplekslarining tarkibi ham aniqlandi. Entomofaglar ro'yhati paydo bo'la boshladi, bu borada Kaliforniya qalqondori ustida olib borilgan ishlar qiziqarlidir. *Thomsonica Shutovae* (*Tgjaipizin*) parazitini Shimoliy Koreyadan Kavkazga olib kelish ustidagi urinishlar yaxshi natija bermadi (*Tryapisin*, 1962; *Shutovaya*, 1967; *Chumakova*, 1957, 1961, 1969). Bundan ilgariroq boshqa parazit *Thomsonica rallipes* (*Tshumakova*) Primorye o'lkasida aniqlandi. Kaliforniya qalqondorining tarixiy arealida, ya'ni Hindiston (*Kashmir shtati*)da ham shu turning yangi paraziti *Thomsonica indicus Narajanan* (*Narajanan*, 1960) tomonidan aniqlandi. O'rta yer dengizida samarali parazit *Nabrolopus Aspidioti et Annyeskye* topildi, uni AQShga introduksiya qilmoqchi bo'ldilar, ammo natija ijobiy bo'lmadi (*Rozen Rossler*, 1966 *Avidor Nagraz*, 1964; *Annyeskye*, *Munhardt*, 1970, 1981; *Rrinsloo*, 1983, 1984).

Uzoq Sharq, shimoliy-sharqiy Xitoy, Koreya Kaliforniya qalqondorining vatani hisoblanadi. Bu yerda *prospaltella* paraziti Kaliforniya qalqondorini 70-80% zararlaydi va zararkunandani qiymat darajasini pasaytiradi. Ikilamchi o'choqlarida: Kavkazning Qora dengiz qirg'oqlari, Ukraina, Markaziy Osiyoda parazit qalqondorni 87-94% zararlaydi, so'ng parazit qiymati 11-13% kamayadi. Buning sababi har xil tushuntirilgan.

Binafsharangli qalqondor mevali va yovvoyi ekinlarning keng tarqalgan va xavfli zararkunandalaridan biri deb hisoblanadi. Zararkunandaning keng

tarqalganligiga qaramasdan uning bor yo'g'i ikki tur entomofogi aniqlangan (parazitlar-Habrolepis tergrigoriae Trijipitzin va Anthemus aspidioti Nik) (Nikolskaya, 1952; Trepisin, 1962, 1968, 1971; Sonina, 1962; Davletshina i drugiye, 1970; Myarseva, 1972, 1980, 1984; Sharipov, 1980.). Birinchi parazit Armaniston, Turkmaniston va O'zbekistonda keng tarqalgan, o'simliklarda foyda keltiradi. Binafsha rangli qalqondordan tashqari Turon qalqondorini ham zararlaydi. Anthemus aspidioti Nik paraziti ko'p turlarga ixtisoslashgan. Terakning shishgan (Quadraspidotus slavonicus Green), Kaspiy orti (Diaspidiotus transcaspensis Marl) Turon Diaspidiotus prunorum Laing) teraklarni zararlaydi, shu sababli binafsha rangli qalqondorning rivojlanishini to'liq nazorat qilishi mumkin (Sonina, 1962; Sharipov, 1980; Myarseva, 1972, 1984.).

Markaziy Osiyo vergulsimon qalqondorida (Lepidosaphes mesasiatica Borchs), bir turdagi parazit aniqlangan (Zaomma lambinus Wakes), bu tur Poleartikada keng tarqalgan (mevali bog'larda). Ammo amaliyotda ahamiyatga ega emasdir (Dergunova, 1977; Saakyan-Baranova, Dergunova, 1978; Myarseva, 1984).

Turon soxta qalqondori entomofaglari ham bu xavfli zararkunandaning miqdorini tartibga solishda amaliy ahamiyatga egadir. Entomofaglarning tur tarkibi, biologiyasi va ekologiyasini samaradorligini aniqlash yuzasidan ma'lum tadqiqotlar o'tkazilgan. Hozirgi kunga kelib quyidagi parazitlar aniqlangan: Microterus praedator Sug, Microterus lehri Sug, Microterus turanicus Sug, Blastothrix turanicus Sug, Metaphicus dispar (Mecred), Discodes emiliae Sug, Cheiloneurus claviger (Thomson), Mucroterus intermedius Sug. Ularning ko'pchiligi ommaviy tarzda rivojlantirishda va zararkunandalarning miqdorini kamaytirishadi. Ammo qator parazitlar hammaxo'rdirlar va boshqa qalqondorlarni ham zararlaydi.

Akasiya soxta qalqondorida ko'plab parazitlar aniqlangan, masalan Kopet-Dagdagi daraxtzorlarda Microterus silvius (Dalman) paraziti topilgan, u shaftoli va turon soxta qalqondorini ham zarar laydi (Nikolskaya, 1952;

Rubsov, 1954; Suitsmen, 1964; Sugonyayev, 1965, 1975, 1984; Goansa, 1966; Goansa va boshqalar, 1974 Saakyan-Baranova, Perepelisa, 1968). Shunga o'xshash holat shaftoli soxta qalqondorida ham kuzatiladi. Bu zararli tur Markaziy Osiyo respublikalarining o'zidagina tarkalib qolmasdan, uning chegarasidan tashqarisiga ham tarqalgan. Bu soxta qalqondorda M.N.Nikolskaya (1952) 9 ta parazit borligini qayd qilgan, ulardan ko'proq ahamiyatga ega bo'lganlarini *Blastothrix hungaria* Erdos, *Metaphicus dispar* (Mecred), *Cheiloneurus claviger* (Thomson), *Microterus mesasiatica* Myartseva, kabi ko'plab tadqiqotchilar o'rganishadi (Sugonyayev, 1964, 1965, 1975; Babayev, 1968, 1969; Saakyan-Baranova, Perepelisa, 1968; Bazarov, Babayev, 1971, Soydanbay, 1976; Ramasesehich 1985). Adabiyotlardagi ma'lumotlarni tahlil qilib shuni qayd qilish mumkinki, bu zararkunandalar va ularning entomofaglari hamda ularga qarshi biologik kurash to'g'risida ham kerakli izlanishlar olib borilgan. Bu esa hasharotlarning shu guruhi to'g'risidagi ma'lumotlarni kengaytiradi. Ammo muvoffaqiyatlar bilan bir vaqtda ayrim fikrlar qarama-qarshiliklarni ko'ramiz, bu esa shu masalani chuqurroq tadqiq etishni talab etadi. Bundan tashqari ko'pchilik xavfli bo'lgan zararkunandalar hozir, ayniqsa, mevali daraxtlar so'ruvchi zararkunandalari yetarli darajada o'rganilmagan, bu hosilni himoya qilish texnologiyasini mukammallashtirishni ham talab qiladi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda meva va manzarali daraxtlarning so'ruvchi zarakunandalarini yanada chuqurroq o'rganish, ularning ayrim o'ta xavfli turlariga qarshi atrof-muhitga xavfsiz va samarali kurash choralarini ishlab chiqish hozirgi kun talabidir.

II-Bob. QALQONDORLARNI ASOSIY TURLARINI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1. Turon soxta qalqondori

Biologik xususiyatlari. Turon soxta qalqondori lichinkanining ikkinchi yoshida ozuqa o'simliklarning pastki qismidagi po'stloqning yoriqlarida va chuqurchalarida qishlagan. Bahorda mart oyining ikkinchi yarmida havoning o'rtacha o'n kunlik harorati 10,5-11,9 C° da, qishlagan lichinkalar daraxt shox-shabballarga o'tadi va ingichka novdalariga oziqlanish uchun o'rnashgan. Aprelning oxirida (22.04) havoning o'rtacha o'n kunlik harorati - 15,8 C° va nisbiy namligi 69% va may oyining boshida (4.05), havoning o'rtacha o'n kunlik harorati 17,2 C° va nisbiy namligi 53% bo'lganda birinchi yosh urg'ochi lichinkalar aniqlangan. Avval urg'ochisi ikkinchi yoshdagi lichinkadan kam farq qilgan, ammo keyinchalik ularning kattaligi tez ortgan.

2012 yili birinchi marta tuxumchalar 20 mayda aniqlangan, havoning o'rtacha o'n kunlik harorati 18,5 S° va nisbiy namligi 63% va tashkil etgan. 2011 yili birinchi tuxumchalar qo'yish 16 mayda o'rtacha o'n kunlik harorat - 21,4 C° havoning nisbiy namligi 52% da kuzatilgan. Tuxumchalarni yalpi ravishda qo'yish may oyining oxiri va iyun oyining birinchi o'n kunligida kuzatilgan.

Bir urg'ochi zot o'rta hisobda 1463 ta tuxum qo'ygan, ammo Turon soxta qalqondorining jinsiy mahsuldorligi daraxtning ozuqalik sifatiga bog'liqdir. Ko'rinib turibdiki, olchada eng ko'p tuxum qo'yilgan, o'rtacha 2040 dona, maksimal miqdori 2205 ta va minimal miqdori 1896 ta. Tog' olchada 1832 ta, maksimal 2031 ta va minimal miqdori 1035 ta; shaftoli o'rtacha 1127, maksimal 1301 va minimal miqdori 1011; o'rikda o'rtacha 862, maksimal 993 va minimal miqdori 611 tuxumchalarni tashkil etgan.

Tuxumchalarning embrional rivojlanishi 5-8 kun davom etgan, so'ng «daydi» lichinka ochib chiqqan. Tuxumchalar qo'yilganda ulardan tezda lichinkalar chiqa boshlagan va bir vaqtda bu muddat uzoqqa cho'zilmagan.

2011 yili birinchi «daydi» lichinkalar 25 mayda aniqlangan, havoning oʻrtacha oʻn kunlik harorati 20,4 C° va havoning nisbiy namligi 62% da, 2012 yili 21 mayda oʻrtacha oʻn kunlik haroratda 21,3 C° va havoning nisbiy namligi 56% da. Dastlabki 2-3 kunlari lichinkalar juda harakatchan, asosan shox-shabbaning yuqori qismiga harakat qilib odimlaydilar va barglarda oziqlanishgan. Bunda lichinkalarning asosiy qismi bargning ostki qismida joylashgan (tomirlarida). Shuni aytib oʻtish, kerakki, zich joylashgan daraxtzorlarda koʻp lichinkalar oziqlanish uchun bargning yuqorigi qismiga ham joylashgan. Bir yarim haftadan soʻng lichinkalar tullagan va ikkinchi yoshga oʻtgan. Oktyabrning uchinchi oʻn kunligida lichinkalar daraxtning pastki qismiga koʻplab oʻtgan va novdalarning yoriqlariga va chuqurchalariga kirib, bu yerda qishlagan. Bir yilda bir marta avlod bergan.

1- jadval

Har xil mevali daraxt turlaridagi Turon soxta qalqondorining jinsiy mahsuldorligi

(Samarqand tumani, “Oltin bogʻ” agrofirma., X.Shukurov, A.Yusupov., 2011y).

Ozuqa oʻsimliklar turi	Qoʻyilgan tuxumchalarning oʻrtacha miqdori, dona	Tuxumchalarning minimal miqdori, dona	Tuxumlarning maksimal miqdori, dona
Olcha	2040	1896	2205
Togʻ olcha	1822	1085	2035
Shaftoli	1127	1011	1301
Oʻrik	862	611	993
Oʻrtacha	1462,7	1157,5	1633,5

Ozuqa oʻsimliklari. Lichinkalar va katta yoshdagi urgʻochilari koʻp miqdorda daraxt tanasida, ingichka novdalarda va barglarda joylashib, hujayra shirasini soʻrishgan. Soxta qalqondor olchani, olxoʻrini, oʻrikni, gilosni, togʻ

olchani, bodomni, grek yong'og'ini, ko'k sultonni, olmani, nokni, behini va anorni zararlagan. Ulardan tashqari adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko'ra, soxta qalqondor zirkni, qora qarag'atni, idishmurutni, yovvoyi yong'oqni, tovulg'ini, na'matakni, tutni, qizilnikni, qayrag'ochni, do'lanani va terakning har xil turlarini zararlaydi. Qayd etilgan 26 daraxt butalardan, 11 tasi mevali daraxt butalarga, 7 tasi danakli turlarga kiradi, ular Turon soxta qalqondori bilan zararlanib, hosilni yo'qotishar ekan.

Yirtqichlari va parazitlari. Entomofaglar Turon soxta qalqondorining miqdorini chegaralab, ularning faoliyati juda ham har xil bo'lib, zararkunandaning turli rivojlanish fazalari bilan bog'liq ekan.

Parazitlarning aniqlash uchun Turon soxta qalqondori bo'lgan olxo'ri va o'rik novdalarini kesib olingan, etiketkalari bilan kolbaga joylashtirilgan (yoki bir litrli bankaga). Parazitning imagosi uchib ketgandan so'ng urg'ochi zotlarda parazitning uchib chiqadigan teshikchalari hisoblab chiqilgan. Uchib chiqishi uchun paydo bo'lgan teshikchalar shunga o'xshab tabiiy sharoitda ham har xil xo'jaliklarda kuzatib borilgan.

Yig'ilgan materiallar va adabiyot ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Turon soxta qalqondorida ko'p parda qanotlilar parazitlik qilib hayot kechirar ekan. Masalan, A.D.Argangelskaya (1937), M.N.Nikolskaya (1952), N.S.Borxsenius (1957), B.B.Bozorov, T.Boboyev (1971), S.N.Myarseva (1984) shuni ko'rsatadiki, Turon soxta qalqondori parazitlari bo'lib, *Microterus intermedus* Sugonjaev, *Microterus preadator* Sugonjaev, *Microterus turanicus* Sugonjaev, *Blastothrix turanica* Sugonjaev, *Metaphicus dispar* Mecred, *Discodes emiliae* Sugonjaev, va *Cheilonourus claviger* Thomson kabi turlari hisoblanar ekan.

Microterus intermedus Sug. - ushbu tur mevali daraxtlarda, ayniqsa, tog' olchasida, grek yong'og'ida, do'lanada va olmada keng tarqalgan. Turon soxta qalqondori urg'ochilarining ichki paraziti, undan tashqari ajinsimon (*Eulecanium rugulosum* Arch.) va akasiya soxta qalqondori (*Parthenolecaniumcorni* Bouche.) ni ham zararlagan.



1-rasm. Turon soxta qalqondori.

Soxta qalqondorlar tarqalish o'choqlarida urg'ochi parazitlar aprel oyining oxirida paydo bo'ladi va sentyabrning oxirigacha saqlangan. Parazitlar imagolari xo'jasidan alohida qishlagan.

Microterus preadator Sug.- Turon soxta qalqondorining tuxumlarining yirtqichidir. O'zbekiston, Tojikiston va hamma Markaziy Osiyo, Kavkaz orti, Turkiya, Eron, Pokiston va Afg'oniston tog'laridagi yovvoyi mevasorlarida keng tarqalgan. O'zbekistonda ko'proq tog' oldi mintaqasida ko'proq tarqalgan. Asosan shaftoli, o'rik, tog' olcha, behi va boshqalarda uchragan. Birinchi yoshdagi lichinkalari qishlagan, aprelning boshlarida g'umbaklangan, aprelning oxirida imagosi ucha boshlagan, bunda urg'ochilari uchishi uchun teshikchalar ochishgan, ular boshqa parazitlardan farq qilgan.

Ko'rinib turibdiki, Turon soxta qalqondorining parazitlari bilan umumiy zararlanishi 13,7 - 29,6% ni tashkil qilgan, bunda soxta qalqondorining bitta urg'ochisida 10 tagacha parazit lichinkalar rivojlangan. Turon soxta qalqondorining bir teshikchali urg'ochisi tanasida 5,0 - 11,9% ni tashkil qilgan,

ikkita uchuvchi teshikchali 1,2 - 7,0% va undan ortiq, uchdan ortig'ida 0,6 - 9,2%.

Turon soxta qalqondorining miqdorini kamaytirishda uning tuxumlari, lichinkalari va katta yeshdagi soxta qalqondor bilan oziqlanuvchi yirtqichlar katta rol o'ynagan. Ularga ikki nuqtali xilokorus (*Chilocorus bipustulatus* L.) va ekzoxomus (*Exochomus quadripustulatus* L.) kiradi. Ikkala tur birga uchraydi va hayot tarzi bir-biriga o'xshash. Qo'ng'izlari yorug'sevar, quyoshli tomonda bo'lishadi, juda xo'ra hasharot. Bitta qo'ng'iz bir oy mobaynida soxta qalqondorining 300-500 dona lichinkasi va imagosini iste'mol qilgan. Bir qo'ng'izning 700-800 dona soxta qalqondorni yo'q qilishi bilan barobar ekan.

Ikki nuqtali xilokorus imagosi stadiyasida po'stloq yoriqlari, shoxlarning o'sib chiqqan joylari va to'kilgan barglar tagida qishlagan. Bahorda, martning oxiri aprelda qo'ng'izlar uyg'ongan va biroz oziqlanib, urg'ochilari tuxum qo'ygan. Tuxumchalarning urg'ochi qalqondorning ostiga qo'yadi, yoki ularning yoniga qobiqlar yorig'iga qo'ygan. Urg'ochisi 130 tagacha tuxum qo'ygan. Imagosi 2 oygacha yashagan. Qo'ng'izlari ertalabki va kechki soatlarda harakatchan bo'lgan. Xilokorusning qo'ng'izi va lichinkasi qalqonni ust qismidan teshgan va qalqondorning tanasini yegan. Qalqondagi teshikchalarning shakli bo'lishligi xilokorusning faoliyatidan darak beradi. Bir yil davomida 2-3 avlodi rivojlangan.

To'rt nuqtali ekzoxomusning biologiyasi xilokorusnikiga o'xshashdir, ammo koksidlardan tashqari ayrim vaqtda barg biti bilan ham, masalan, qon biti bilan ham oziqlangan (*Yeriosoma lanigerum* Hausm) .

2.2. Binafsha rangli qalqondor

Biologik xususiyatlari. Binafsha rangli qalqondorning urug'langan urg'ochisi ozuqa o'simlikdagi qalqonni ostida, po'stlog'ida qishlagan. Qishning minimal harorati qalqondorga ta'sir qiladi, qishlovchilari harorat qisqa vaqt

davomida -11- -15 °C bo'lsa ham chidaganlar. Ammo harorat -29 °C bo'lganda, deyarli hammasi xalok bo'lgan.

Bahorda ozuqa o'simliklarida shira harakati boshlanishi bilan urg'ochilari va oziqlanishni davom ettirganlar. Olmaning gullashi oxirida tuxum qo'yishi boshlangan. 2011 yili birinchi qo'yilgan tuxumchalar 24 aprelda aniqlangan, havo haroratining o'rtacha darajasi 17,4 °C, havoning nisbiy namligi 55% bo'lgan, 2012 yili esa 30 aprelda havoning o'rtacha o'n kunlikdagi harorati 12,9 °C va havoning nisbiy namligi 49% bo'lgan. 9-12 kundan so'ng tuxumdan «daydi» lichinkalar paydo bo'lgan, barg va meva bandlarida joylashadilar, barg yuzasida esa uncha uchramaganlar.

Birinchi yoshdagi lichinkalar may oyining birinchi va ikkinchi o'n kunligida 2011 yili 6 mayda, 2012 yili 11 mayda havoning o'rtacha harorati 15,4 - 21,5 °C va nisbiy namligi 48 - 68% bo'lgan davrda paydo bo'lganlar.

Ikkinchi yoshdagi lichinkalar 24 va 31 mayda aniqlangan va shuni ta'kidlash kerakki, urg'ochi lichinkalar ikkinchi tullashdan keyin katta yoshdagi urg'ochiga aylanishar ekan, erkak lichinkalar esa ikkinchi tullashdan so'ng ketma-ket pronimfa va nimfa fazalarini o'tagan va katta yoshdagi erkak zotlar paydo bo'la boshlagan. Urg'ochi va erkak yetuk zotlari iyunning oxiri va iyulning boshlarida aniqlangan. Urg'ochilarning dastlabki tuxum qo'yish davri iyulning birinchi o'n kunligida aniqlangan (2011 yili 5 iyulda, 2012 yili 8 iyulda).

Urg'ochilarining jinsiy mahsuldorligi 20-50 dan 70 tagacha tuxumga to'g'ri kelgan.

Birinchi daydi lichinkalar 2011 yili iyulning o'rtasida (16.07) aniqlangan, 2012 yili esa iyul oyining ikkinchi o'n kunligi oxirida (19.07), lichinkalarning chiqishi avgustning boshigacha (2.08) davom etgan. Ikkinchi avlod vakillari birinchisidan sezilarli darajada ko'proq, lichinkalar barglarning bandlari, tomirlariga, novda va shoxchalar, meva bandlari va mevalarga yopishib olib, shirasini so'rishgan. Oziqlanishning boshlanishidan bir oy keyin lichinkalar ikkinchi marta tullaydi va avgustning oxirida urg'ochi va erkak imagolari paydo

bo'lgan. Juftlashgandan so'ng erkaklari halok bo'lgan. Urg'ochilari esa qishlashga ketgan.

Shunday qilib, binafsha rang qalqondor vegetasiya davrida ikki marta avlod beradi. Kuzatuv davrida shuni aniqlanganki, ikkinchi avlodda zotlari ko'p bo'lib, ular barglar va mevalarda joylashgan, bu esa bizdan maxsus hisoblash o'tkazishni talab etgan. Bu hisoblarda binafsha rangli qalqondorning jinslari orasidagi nisbati aniqlangan. Buning uchun 5 ta zararlangan daraxtdan 2 tadan novdalar kesib olingan, 12 ta barglar (4 tadan) va 12 tadan mevalar (4 tadan) daraxtning har tomonidan olingan va qalqondorlarning qalqoni kuzatilgan va hisob etilgan. Urg'ochisining rangi oq yoki kulrang, ikkinchi yosh lichinka terisi eksentrik ravishda qalqonning bir chetida joylashgan va uning maydonini uchdan bir qismini egallagan, qalqoning uzunligi 2 - 2,5 mm. Erkak qalqondorning qalqoni cho'zinchoq, tekis, birinchi yosh lichinka terisi bilan, qalqonining uzunasi 1,5 mm (2-jadval).

2-jadval

**Olxo'ri daraxtining har xil qismida binafsha rangli qalqondor
jinslarining nisbati**

(Samarqand tumani, "Oltin bog'" agrofirma., X.Shukurov, A.Yusupov., 2011y).

O’simlikning qismlari	Miq-dori, dona	Qalqon-dorlarning o’rtacha miqdori, dona	Shu jumladan				Nisbati
			Urg’ochisi		Erkagi		
Novdalar	8	138,2	102,8	74,4	35,4	25,6	2,9:1
Barglari	48	71,1	16,2	22,8	54,9	77,2	1:1,38
Mevalar	48	82	9,2	11,3	72,8	88,7	1:7,91

Ozuqa o'simliklari. Lichinka va urg'ochilari novdalarning, shoxlarning, daraxt tanasining, barglarning shirasini so'rib olgan. Zararlangan mevalarda binafsha-qizil rangli nuqtalar paydo bo'lgan, ularning hususiyati pasaygan.

Binafsha rangli qalqondorni olxo'rida, olchada, tog' olchada, shaftolida, o'rikda va bodomda ham aniqlangan. Yuqoridagilardan tashqari u olmani ham zararlagan, nokda, behida, grek yong'og'ida va uzumda aniqlangan.

A.D.Arxangelskaya (1937) shuni ma'lum qiladiki, binafsha rangli qalqondor quyidagi o'simliklarni ham zararlantirar ekan: qarag'atni (smorodina), krijovnikni, xo'jag'atni (malina), chetanni (ryabina), qizilni, ternni (yovvoyi olxo'ri), sirenni, buldenejni, na'matakni, uchqat, kashtan, tikan daraxt, shumtol, qayrag'och, sambitgul (oleandr) va magoniya.

Ko'pchilik tadqiqotchilar (Borxsenius, 1950, 1963; Avetyan, 1952; Tereznikova, 1982) ma'lum qiladiki, binafsha rangli qalqondor yana quyidagilarni zararlaydi: zirk, do'lana, shumurt, tobulg'a, anor, zaytun, tut, taflon (lavrovishnya), maklyura, katalpa, padub, Semenov zarangi, oq akos va sariq akos.

41 ta turdagi zararlanadigan o'simliklardan 14 tasi mevali-rezavor o'simliklardir, ularga binafsha rangli qalqondor katta zarar keltiradi. Ayniqsa, olma, nok va qisman o'rik zararlangan.

Parazitlari va yirtqichlari. Binafsha rangli qalqondorning tabiiy kushandalari ichidan parazit va yirtqich hasharotlar aniqlangan, ulardan ayrimlari faqat binafsha rangli qalqondor bilan oziqlanadi, boshqalari esa koksidlarning o'zga turlari bilan ham oziqlangan. Binafsha rangli qalqondorda parazitlarning uch turi aniqlangan: *Anthemus aspidioti* Nikolskaya *Aphytis mytilaspidis* Le Boron *Habrolepis tergrigorisnae* Trjapitzin. Ularning hammasi ko'p turlar bilan oziqlanganlar va koksidlarning ko'pgina turlarini zararlagan va ularning miqdorini kamaytirib ijobiy rol o'ynagan. *Anthemus aspidioti* Nik parazitlari binafsha rangli qalqondor, Turon (*Duaspidotus prunorum* Laing) terakning bo'rtgan (*Quadraspidotus slovonius* Green), kaspiy orti (*Duaspidotus trancaspiensis* Marl) kabi qalqondorlarni zararlagan. Parazit

vohalarda keng tarqalgan, ayniqsa, O'zbekistonning aholi punktlarida va Markaziy Osiyoning boshqa respublikalarida ham tarqalgan.

Xo'jayinining tanasida birinchi yoshdagi lichinkalari qishlagan, kam holda ikkinchi yoshdagi lichinkalar qishlagan, imagosining uchishi apreldan oktyabrgacha davom etgan. Bir yilda 3 ta avlodi rivojlangan.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatganki (3-jadval), parazitlar qalqondorning miqdorini 10.2-13.8% miqdorida kamaytirgan. Qalqondorlarning boshqa turlarida zararlash foizi yuqoriroq bo'lgan. Masalan, A.K.Sonina (1962) shuni ko'rsatdiki, bu parazit terakning qovushiq qalqondorini 36% zararlagan, Turkmanistonda esa zararlash 76.5% bo'lgani aniqlangan. Nabrolepis tergrigorianae Trjapitzin paraziti kamroq ahamiyatga ega, ammo u bog'larda keng tarqalgan. Binafsha rangli qalqondorlardan tashqari Turon qalqondorini ham zararlagan (*Duaspidotus prunorum* Laing). Turkmaniston va Armanistonda ham aniqlangan.

Binafsha rangli qalqondor parazitlari ichida *Arhytis mytilaspidis* Le Baron kam tadqiq qilingan. Ma'lumki, binafsha rangli qalqondordan tashqari olmaning vergulsimon va kaliforniya qalqondorini ham zararlagan.

Binafsha rangli qalqondorini parazitlar bilan zararlanishi.

(X.Shukurov, A.Yusupov.)

Joyning nomi	Ko'rib chiqilgan urug'ochi imagolar, dona	Ulardan parazitlar uchib chiqish teshikchalari bilan, dona	Parazitlar bilan zararlangan, %
2011 yil			
Samarqand tumani "Oltin bog' agrofirma"	210	29	13.8
Salimov Abduqayum bog'lari f/x	186	19	10.2
2012 yil			
Samarqand tumani "Oltin bog' agrofirma"	132	17	12.8
Salimov Abduqayum bog'lari f/x	112	13	11.6

2.3. O'rta Osiyo vergulsimon qalqondori.

Biologik xususiyatlari: Samarqand viloyati sharoitida O'rta Osiyo vergulsimon qalqondori tuxum stadiyasida ona qalqoni ostida qishlaydi. Bahorda qishlashdan chiqqan tuxumlar oq rangli bo'ladi va lupa ostida ko'rilganda guruch donalariga o'xshaydi. Iliq havo kelishi bilan tuxumlar to'q sariq rangli bo'ladi, bunda qurtning embrional rivojlanishi tugallanadi va tuxumning bir chegarasida (orqasida) ikki nuqta ko'ringan. Aprelning oxiri, may oyining boshida lichinkalar chiqa boshlagan (daydi lichinkalar). Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, daraxt tanasining janub va g'arb tomonidagi tuxumlardan birinchi bo'lib lichinka chiqqan, chunki bu tomonlarni quyosh

yaxshiroq isitgan. 2011 yili birinchi lichinkalar 27 aprelda o'rtacha o'n kunlik harorati 15.8°C da, havoning nisbiy namligi, 69% da, 2012 yili esa 5 mayda havoning o'rtacha harorati 21.5°C, nisbiy namligi 48% da paydo bo'la boshlagan. Shuni ta'kidlash kerakki, «daydi» lichinkalarning paydo bo'lishi oq akasiyaning yalpi ravishda gullash davriga to'g'ri kelgan (*Robinia*



pseudoacacia).

2-rasm. O'rta Osiyo vergulsimon qalqondori.

Tuxumdan chiqqan daydi lichinkalar ona qalqonchasining ostidan chiqib, daraxtning tanasi va novdalari bo'ylab ozuqa qidirib o'rmalab ketishar ekan. Oziqlanish uchun qulay joyni topib o'zlarining uzun xartumchalari bilan po'stloqni teshib, hujayra shirasini so'rganlar. Lichinkalarning ko'proq qismi yosh novdalar ostida yig'ilishgan, barglar bandida bo'lganlar. Ammo barg plastinkasining o'zida deyarli uchramaganlar.

Lichinka oziqlanishi bilan uning tanasi yuzasiga oqish tukli ipchalar chiqqan, ipchalar keyinchalik qoramtir bo'lib, zichlashadi va qalqoncha vujudga kelgan. Tullashda lichinka ipchalari qalqonning ichki tomoniga joylashgan. Tullash jarayonida lichinkalarning ko'zlari, mo'ylovlari va oyoqlari yo'qolgan.

Ikkinchi yoshdagi lichinkalar may oyining ikkinchi o'n kunligida (18 may) paydo bo'lganlar, 2011 yili o'rtacha kunlik harorat 18.5 C°, nisbiy namlik 63% bo'lganda, 2012 yili esa may oyining uchinchi o'n kunligida (27 mayda) havoning o'rtacha o'n kunlik harorati 20.2°C va havoning nisbiy namligi 50% bo'lgan. 2011 yili birinchi avlod erkaklarining dastlabki nimfalari iyun oyining boshida (6.VI) paydo bo'lgan. Erkaklarining uchishi va katta yoshdagi urg'ochilar iyun oyining ikkinchi o'n kunligi oxirida (28.06.2011 y) va iyun oyining uchinchi o'n kunligi boshida (22.06.2012 y) aniqlangan. Iyun oyining oxirida (29.06) birinchi avlodi urg'ochilarining tuxum qo'yishi aniqlangan.

Urg'ochilari tuxumini o'z qalqoni ostiga qo'ygan, tuxumlar qo'yilishi davrida urg'ochisining tanasi burishadi va asta-sekin qalqonchasining bosh tomoniga harakatlangan. Birinchi avlod urg'ochisining jinsiy mahsuldorligi ikkinchi avlod urg'ochilarnikiga nisbatan kamroq bo'lgan. Birinchi avlod urg'ochisi o'rtacha 61.8-64.3 tuxo'mchalar qo'ygan, ikkinchi avlodi esa 84.5-92.3 tuxumcha qo'ygan. Shuni ta'kidlash kerakki, ayrim urg'ochilari 120 tagacha va undan ortiq tuxumchalar qo'yishi mumkin. Urg'ochilarining mahsuldorligi qalqondorning zichligiga bog'liqdir. Bu to'g'rida N.Kim (1959) va B.Bazarov, G.P.Shmelev (1971) kabi olimlarning fikri bir xil: qalqondorlar zich joylashganda, urg'ochilarining mahsuldorligi kam bo'lgan, aksincha ular joylashganda esa eng ko'p bo'lgan.

O'rta Osiyo vergulsimon qalqondori urg'ochi zotining mahsuldorligi
(Samarqand viloyati Samarqand tumani., X.Shukurov, A.Yusupov.)

Avlod	Ko'rib chiqilgan urg'ochilar, dona	Aniqlangan tuxumchalarning o'rtacha miqdori, dona
1-avlod	2011 yil 10	64.3
2-avlod	10 2012 yil	92.3
1-avlod	10	61.8
2-avlod	10	84.5

Iyunning oxiri, iyulning boshida qalqonchalar ostida tuxumchalar aniqlangan, bu davrda birinchi avlodning «daydi» lichinkalari ham kuzatilgan. 18-20 kundan so'ng, avgust oyining boshida lichinkalar tullagan, urg'ochisining imagosi va nimfasi paydo bo'la boshlagan, so'ng erkaklarning imagosi bilan juftlashgandan so'ng, avgustning oxirida, sentyabrning boshida urg'ochilari qishlab qoluvchi tuxumlarni qo'yishga kirishgan.

Shunday qilib Samarqand viloyatida Samarqand tumanida O'rta Osiyo vergulsimon qalqondori bir yilda ikki avlod bergan.

Ozuqa o'simliklari. O'rta Osiyo vergulsimon qalqondori polifaglar guruhidan hisoblanib, lichinkasi va urg'ochisi ko'p turdagi o'simliklar aniqlangan: shaftoli, olxo'ri, gilos, tog' olcha, o'rik, olma, nok. Undan tashqari qator tadqiqotchilar quyidagi daraxt turlarida ushbu qalqondorlar borligini aniqlaganlar; grek yong'og'i, bodom, uzum, jiyda, sires, na'matak, teraklar, tol, tut, shumtol, chinor, umuman bu qalqondor har xil oiladagi 45 ta turdagi o'simliklarda aniqlangan.

Parazitlari va yirtqichlari. O'rta Osiyo vergulsimon qalqondori entomofaglari yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Parazit hasharotlardan qalqondorning tabiiy dushmani *Encyrtidae –Zaomma lambinus* (Walker) qayd

etilgan. U palearktikada keng tarqalgan va mevali bog'larda uchragan. O'zbekistonda birinchi marotaba 1977 yili aniqlangan (Dergunova, 1977; Saakyan-Baranova, Dergunova, 1978, Myarseva, 1984).

Ikkinchi parazit *Rhyscus testaceus* Masi shu bilan farq qiladiki, oldingi qanotlari yalang'och, qiyshiq chiziqsiz va bir tekis tuklangan. Mo'ylovlari to'g'nag'ichsimon, urg'ochisida 7 bo'g'in, erkagida 8 bo'g'in. Urg'ochilari qalqondor lichinkasi tanasiga tuxum qo'ygan, bu yerda parazit lichinkalari chiqadi va oziqlangan. Oziqlanish tugallagandan so'ng tana ichidagi lichinka g'umbakka aylangan. Parazitning imagosi qalqondorning tanasidan teshikcha ochadi va uchib chiqqan. Shuni ta'kidlash kerakki, parazit uncha samarali emas. 2011 yili Samarqand viloyatining Samarqand tumanida qalqondorning parazit bilan zararlanishi 4.2% ni tashkil qilgan, 2012 yili esa "Salimov Abduqayum bog'lari f/x" da yuqoriroq 7.9%, chunki bu yerda ko'p yil mevali bog'ning zararkunandalariga qarshi kurash olib borilmagan.

Bu parazit O'rta Osiyo vergulsimon qalqondoridan tashqari olmaning vergulsimon qalqondorini (*Lepidosaphes ulmi*) Turon qalqondorini (*Diaspidiotus prunorum* Laing) zararlagan.

O'rta Osiyo vergulsimon qalqondorining yirtqich kushandalaridan, koksidlar; *Chilocorus bipustulatus* L. ni ko'rsatib o'tish mumkin.

III-Bob. QALQONDORLARGA QARSHI KIMYOVIY KURASH ChORALARI.

Kimyoviy preparatlarni qo'llash natijalari bo'yicha Nurell-D, 55% e.k preparati 0,1 l/ga ishlatilganda 1 tupdagi daraxt shoxida lichinka 3 kundan so'ng 18 dona qolgan. Kuzatuvning 7 kunda qalqondorlari 18 donadan 10 donani tashkil qilgan. 14 kuni esa 5 dona qolgan.

Biologik samaradorlik gektariga 0,1 litr ishlatilganda 3 kundan keyin 46,1% ga ishlov berilgandan so'ng 7 kun o'tgach 66,5% ni, kuzatuvning 14 chi kuni biologik samaradorlik 81% ni tashkil etgan. Gektariga Sumi-alfa, 5%e.k. 0,3 l/ga preparatini ishlatganda ishlov berilgungacha bir tup daraxtda 35 ta qalqondor bo'lgan bo'lsa ishlov berilgandan 3 kun o'tgandan so'ng ularning soni 14 dona bo'lgan (5-jadval).

Ishlov berilgandan 7 kun o'tgandan so'ng lichinkalarning soni 8 dona qolgan. Kuzatvning oxirgi 14 kuni bir tup daraxtda o'rtacha 4 dona qalqondor bo'lgan.

Ushbu o'tkazilgan tadbirdan ma'lum bo'lishicha uning biologik samaradorligi 3 kundan so'ng 55,5 %ni tashkil etgan. Kuzatuvning 7 kunida 77,7 %ni, ishlov berilgandan 14 kun o'tgach biologik samaradorlik 88,8 %ni tashkil etgan. Fazalon, 35% e.k. 0,5 litr qo'llanilganda ishlov berilgungacha bo'lgan davr 23 dona qalqondor bo'lgan bo'lsa, ishlov berilgandan so'ng 3 kun o'tgach 6 dona qolgan, 7 kundan keyin esa ularning soni 3 donani tashkil etgan. Tajribani 14 kunida 4 dona qalqondordan 1 dona qolgan. Bu kuzatuvning biologik samaradorligi 3 kundan so'ng 71,8 ni tashkil etsa. 7 chi kunga kelib uning samaradorligi 86,5 ni tashkil etgan. 14 kunga kelib uning samaradorligi 94,8 ga oshgan.

Qalqondorlarga qarshi Karate 5 %li k.e preparatini ham ish tajribada ko'rilgan. Bunda 0,5 litr gektari kuzatuvni olib borilgan. Kuzatuvda 1 tupdagi qalqondorlar 16 dona qalqondor 3 kundan keyin 10 donasi qolgan. Tajribaning 7 chi kunida 6 dona, 14 kunida esa 4 dona lichinka qolgan.

